

KASALLIK NOMLARINI TO‘G‘RI TARJIMA QILISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Zikrillayeva Rayxona Farhod qizi Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Tarjimashunoslik (xitoy-ingliz tili)”

Yo‘nalishi 4-kurs talabasi rayxonazikrillayeva@gmail.com

+998908237808

Ilmiy rahbar: Xamidova Mohinaxon Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” Kafedrasi katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola kasallik nomlarini to‘g‘ri tarjima qilishning lingvistik, tarixiy va tibbiy asoslarini tahlil qiladi. Globallashuv sharoitida tibbiy terminlarning standart va aniq tarjimasi shifokorlar o‘rtasidagi muloqot, diagnostika aniqligi va xalqaro hamkorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada tibbiy atamalarning lotin-yunon manbalariga borib taqaladigan kelib chiqishi, Ibn Sino merosi hamda ICD kabi zamonaviy xalqaro tasniflarning tarjima jarayonidagi o‘rni yoritiladi.

Transliteratsiya, kalka, adaptatsiya, semantik va deskriptiv tarjima kabi usullar pnevmoniya, sil, astma, leysemiya, epilepsiya va Parkinson kasalligi kabi atamalar misolida tahlil qilindi. Tadqiqot tibbiy tarjimada aniqlik, terminologik moslik va kontekstga asoslangan yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Kasallik nomlari, tibbiy tarjima, transliteratsiya, kalka, adaptatsiya, semantik tarjima, deskriptiv tarjima, lotin-yunon terminologiyasi, ICD tasnifi.

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются лингвистические, исторические и медицинские основы правильного перевода названий заболеваний. В условиях глобализации стандартизированная медицинская терминология играет важную роль в обеспечении эффективной коммуникации между медицинскими специалистами, предотвращении

диагностических ошибок и развитии международного сотрудничества. В работе освещаются греко-латинские истоки медицинских терминов, влияние исторических медицинских традиций, включая труды Ибн Сино, а также значение международных классификаций, таких как ICD. Анализируются различные методы перевода — транслитерация, калькирование, адаптация, семантический и описательный перевод — на примере терминов *pneumonia*, *tuberculosis*, *asthma*, *leukemia*, *epilepsy* и *Parkinson's disease*. Результаты исследования подчеркивают необходимость точности, последовательности, терминологического соответствия и учета контекста при переводе медицинских терминов.

Ключевые слова: Названия заболеваний, медицинский перевод, транслитерация, калька, адаптация, семантический перевод, дескриптивный перевод, греко-латинская терминология, классификация ICD.

ABSTRACT: This article examines the linguistic, historical, and medical foundations of accurately translating disease names. In the context of globalization, standardized medical terminology plays a crucial role in improving communication among healthcare professionals, preventing diagnostic errors, and supporting international collaboration. The study highlights the Greek-Latin origins of medical terms, the influence of historical medical traditions such as those of Avicenna, and the importance of international classification systems like ICD. Various translation methods—including transliteration, calque, adaptation, semantic translation, and descriptive translation—are analyzed through practical examples such as *pneumonia*, *tuberculosis*, *asthma*, *leukemia*, *epilepsy*, and *Parkinson's disease*. The findings emphasize the necessity of accuracy, consistency, terminological equivalence, and contextual understanding in medical translation.

Key word: Disease names, medical translation, transliteration, calque, adaptation, semantic translation, descriptive translation, Greco-Latin terminology, ICD classification.

Kirish

Hozirgi globallashtirish jarayonida sogʻliqni saqlash tizimida aniq va toʻgʻri tarjima qilish juda katta ahamiyatga ega. Xususan, kasallik nomlarini toʻgʻri tarjima qilish tibbiy xodimlar oʻrtasidagi oʻzaro tushunishni taʼminlash, tashxis va davolash jarayonlarida xatoliklarning oldini olish hamda xalqaro tibbiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Kasallik nomining notoʻgʻri tarjima qilinishi esa bemorlar hayoti va sogʻligʻi uchun jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin, chunki har bir termin aniq klinik maʼnoga ega boʻlib, uni notoʻgʻri talqin qilish tibbiy qarorlar sifatiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Tibbiy tarjima boshqa sohalardagi tarjimalardan keskin farq qiladi. Tibbiyot atamaları koʻpincha lotin yoki yunon tillaridan olingan boʻlib, ularning tuzilishi murakkab, maʼnosi aniq belgilangan va faqat maʼlum kontekstlarda qoʻllanadi. Shuning uchun kasallik nomlarini tarjima qilish jarayoni nafaqat til bilimi, balki tibbiy tushunchalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Ushbu maqolada kasallik nomlarini toʻgʻri tarjima qilishning asosiy usullari, qoidalari va uchraydigan qiyinchiliklarini yoritish hamda tarjima jarayonida mutaxassislar duch keladigan muammolarga yechim taklif qilishdan iborat.

Maqolada kasallik nomlarini tarjima qilishda qoʻllaniladigan usullar, toʻgʻri atama tanlash qoidalari, xalqaro tibbiy standartlar, lingvistik va madaniy farqlarning tarjimaga taʼsiri kabi jihatlar qamrab olinadi. Shuningdek, tibbiy tarjimada aniqlik, neytrallik va terminologik moslikning oʻrni alohida koʻrib chiqiladi.

Tibbiyotga oid yangiliklar, kasalliklar, dorilarning nomi necha asrlar davomida lotin-yunon tilida berilgan va bundan keyin ham shunday boʻlib qoladi. Lotin tili xalqaro tibbiyot tili deb tan olingan. Bu esa tibbiy olimlarning hamkorlikda ishlashlariga yanada yordamlashadi. Juda qadim zamonlarda hozirgi Italiya hududidagi Appenin yarim orolida Latsiya viloyati boʻlib, u yerda lotin qabilasi yashagan. Bu qabila bosqinchilik urushlari vaqtida butun Yevropa, Afrikaning shimoliy qismi va Oʻrta yer dengizida yashovchi qabilalarga oʻz hukmdorligini oʻtkazgan. Bosib olingan yerlarda yashovchi qabilalarni oʻz tilini, yaʼni lotin tilini davlat tili deb qabul qilishga majbur qilgan. Lotinlarning poytaxti Rum shahri boʻlgan. Rum davlati Yunonistonni

bosib olganda bu yerda madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib, u Rum davlati xalqlari madaniyatida o'z aksini topgan. Buni tibbiyotning davolashga doir atamalarida yaqqol ko'rish mumkin. Keyinchalik, eramizning beshinchi asrlariga kelib, Rum davlati inqirozga uchradi va uning o'rniga hozirgi Fransiya, Ispaniya, Yunoniston, Misr, Italiya va shunga o'xshash boshqa davlatlar yuzaga keldi. Ilk bor tibbiy atamalar yig'masini eramizdan oldingi beshinchi asrda yashagan tibbiy alloma Buqrot (Gippokrat) yozgan. Yevropa mamlakatlarida XVIII asrgacha lotin tili fanda va ma'muriy ishlarda ishlatilib kelingan. Lekin milliy davlatlarning shakllanishi bilan lotin tili o'zining fan va madaniyat sohasidagi ahamiyatini butunlay yo'qotdi. Lotin tili o'lik tilga aylangan bo'lsa-da, hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayni paytda tibbiyot, tarix, huquqshunoslik, filologiya va biologiya fanlari sohasida lotin tilidan keng foydalaniladi. Bu, ayniqsa, tibbiyotda aniq ko'zga tashlanadi, chunki anatomik va davolashga oid atamalar hamda dorilarning nomi lotin tilidadir. Retsept varaqasida hamisha dori nomlari va dorixona xodimiga shifokor tomonidan dori tayyorlash haqidagi ko'rsatmalar lotin tilida yoziladi.¹

Ibn Sinoning kasalliklarni nomlash va ularni tasniflashdagi yondashuvi, zamonaviy tibbiyotda kasalliklar tasnifi va tibbiy terminologiyani shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ibn Sinoning asarlaridagi tibbiy terminlar va kasallik nomlari, faqat uning zamonasi uchun emas, balki hozirgi tibbiyotda ham amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, kasalliklarning nomlanishi va tasnifi o'z vaqtida bir necha falsafiy, ijtimoiy va ilmiy tushunchalarga asoslanib belgilangan bo'lib, bugungi kunda global tibbiyot tizimida ham zamonaviy usullar bilan mos keladi. Ibn Sinoning kasalliklar tasnifi va nomlanish tizimi orqali o'z davrining ilmiy fikrini va tibbiyotga bo'lgan yondashuvni tizimlashtirishga katta

N. BOLIYEV "LOTIN TILI VA TIBBIYOT TERMINOLOGIYASI"
Toshkent — «ILM ZIYO» — 2005.

290b. hissa qo'shganini ko'rish mumkin. Zamonaviy tibbiyotda esa bu tizimlar o'zgarib, yangi Xalqaro kasalliklar tasnifi (ICD) tizimiga moslashtirilgan bo'lsa-da, Ibn Sinoning tizimi hali ham ushbu soha uchun asos bo'lib xizmat qiladi.²

Tibbiyot terminologiyasida tarjima qilish jarayoni umumiy tarjima qoidalariga emas, balki maxsus lingvistik va terminologik tamoyillarga tayanadi. Eng ko‘p qo‘llanadigan usullar quyidagilar:

1. Transliteratsiya — bu bir tildagi yozuv belgilarini boshqa tilning yozuv belgilari yordamida batafsil va aniq tarzda qayta ifodalash jarayonidir. Unda asl matndagi barcha belgilar va ularning ketma- ketligi boshqa tilning mos harflari bilan qayta beriladi. Ushbu o‘zgartirish jarayonining asosiy vazifasi — asl matnning aniq va bir ma’noli shaklini boshqa yozuvda tiklashdir. Oddiyroq aytganda, transliteratsiyaning maqsadi — matnni bir til yozuvidan boshqa til yozuviga o‘tkazish davomida uning asl ko‘rinishini imkon qadar to‘liq qayta yaratishdan iborat. Mazmun o‘zgarmaydi.³

2. Kalka (fransuzcha, calque – nusxa, tak, lid) – boshqa til lug‘aviy birligidan ona tili vositalari asosida nusxa ko‘chirish (so‘zma-so‘z tarjima qilish) natijasida yuzaga kelgan so‘z, atama yoki birikma.⁴

3. Adaptatsiyada ba‘zan kasallik nomi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi, balki ma’lum madaniyatga moslashtiriladi. Adabtatsiya tarjimasi kasallik nomini ma’lum bir mahalliy til yoki tibbiy an’anaga moslab o‘zgartirishni nazarda tutadi.

2 Baxriyeva U. M. IBN SINO “TIB QONUNLARI” ASARIDA KASALLIK NOMLARI: LINGVISTIK VA TERMINOLOGIK TAHLIL. QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTIILMIY XABARLARI- Qo‘qon. 2025. 2557b.

3 <https://dzen.ru/a/YAv3pUFzMybrlrLN?ysclid=miha4wqzv0839738618>
27.11.2025

4 <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kalka> 27.11.2025

4. Semantik tarjima – mazmunni aniq saqlagan holda, maqsad tilining grammatik va ma’no me’yorlariga mos tarzda tarjima qilishdir.

5. Deskriptiv tarjima — so‘z yoki terminning ma’nosini sharhlab, tavsiflab tarjima qilish usuli. Terminning asl shakli tarjimaga mos kelmasa yoki o‘zbek tilida tayyor muqobili bo‘lmasa, u ta’rif orqali izohlanadi. Ya’ni, tarjima so‘zni ko‘chirmaydi, balki uning nima ekanligini tushuntiradi.

1. Infekzion kasalliklar (Infectious Diseases)

- Pneumonia — Pnevmoniya

“Pneumonia” soʻzi qadimgi yunoncha pneumon (oʻpka) va –ia (holat) qoʻshimchasidan tashkil topgan. Tarjima usuli: Transliteratsiya — atama oʻz oʻqilishi boʻyicha oʻzbekchaga moslashtirilgan ($p \rightarrow p$, $eu \rightarrow ev$, $mon \rightarrow mon$). Oʻzbek tibbiyotida yunoncha-lotinja kelib chiqishga ega terminlar soha standartiga mos ravishda transliteratsiya qilinadi.

- Tuberculosis — Sil

Lotinja tuberculum — “tugunak”, “tugunchak”. Adaptatsiya (konventsion tarjima) usulida tarjima qilingan. Sil kasalligi oʻn minglab yillar mobaynida sodir boʻlgan. Koʻpincha “isteʼmol” deb ataladi, chunki u ogʻirlashishi mumkin boʻlgan ogʻir vazn yoʻqotadi. “Sil” oʻzbek tilida qadimgi nom boʻlib, kasallikning xalq orasida yillar davomida shakllangan nomi. Bu tarjima umumiy klinik normaga mos keladi.

2. Surunkali kasalliklar (Chronic Diseases)

- Chronic Kidney Disease — Surunkali buyrak kasalligi

“Chronic” — yunoncha chronos (vaqt); “kidney” — qadimgi inglizcha cyden; “disease” — qadimgi fransuzcha desaise. Surunkali buyrak kasalligi buyraklarning shikastlanishi yoki ularning funktsiyasining 3 oy yoki undan koʻproq vaqt davomida pasayishi. Semantik tarjima — mazmunni toʻliq aks ettirgan holda tarjima qilingan. Atama oʻzbekchada soʻzma-soʻz, lekin mazmuniy jihatdan mos tarjima qilingan. “Kidney disease”ni transliteratsiya qilish imkoni yoʻq, shu sababli semantik usul eng toʻgʻri variant hisoblanadi.

- Asthma — Astma

Yunoncha asthma — “nafas qisilishi”. Transliteratsiya usulida tarjima qilingan. Oʻzbek tilida “bronxial astma” shakli ham uchraydi.

Noinfeksion surunkali yalligʻlanishli nafas yoʻllari kasalligi.

3. Yurak-qon tomir kasalligi (Cardiovascular Disease)

- Hypertension — Gipertoniya

Yunoncha hyper — “yuqori”, “ortiqcha” + tension (lot. tensio) — “taranglik”.

Gipertoniya — bu arterial bosimning me’yoriy ko’rsatkichlardan doimiy ravishda yuqori bo’lishi bilan kechadigan surunkali kasallik. Transliteratsiya + kalka “Hyper” → “giper” + “tension” → “toniya” usulida tarjima qilingan.

4. O’smalar (Oncology)

- Lung Cancer — O’pka saratoni

“Cancer” lotincha cancer — “qisqichbaqa”; qadimda shifokorlar tomonidan o’smaga o’xshatilgan. Semantik tarjima usulida tarjima qilingan. “Cancer” transliteratsiya qilinmaydi (kansyer), balki an’anaviy o’zbekcha tibbiy nom “saron” qo’llanadi. O’pka saratoni (o’pka karsinomasi) o’pkaning malign shishidir.

- Leukemia — Leykemiya

Leukemia so’zi yunon tilidagi ikki qismdan tashkil topgan: leukos (λευκός) — “oq” degan ma’noni anglatadi, haima (αἷμα) — “qon” degan ma’noni bildiradi. Transliteratsiya usulida tarjima qilingan. Leukemia so’zining asl ma’nosi “oq qon” bo’lib, bu kasallikdagi asosiy patologik jarayon — qonda oq qon hujayralarining keskin ko’payib ketishini bevosita ifodalaydi.

5. Nevrologik kasalliklar — Neurological Disorders

- Epilepsy — Epilepsiya

“Epilepsy” atamasi qadimgi yunoncha ἐπιληψία (epilēpsía) so’zidan kelib chiqqan. U ikki qismdan iborat: epi- — “ustiga”, “yuqoridan keladigan”, lambanein / lēpsis — “tutmoq”, “ushlamoq”, “qamramoq”. Transliteratsiya usulida tarjima qilingan. Bu nom kasallikning eng asosiy belgisi — to’satdan boshlanadigan tutqanoq xurujiga ishora qiladi.

- Parkinson’s disease — Parkinson kasalligi

Parkinson kasalligi o’z nomini ingliz shifokori Jeyms Parkinson (James Parkinson, 1755–1824) sharafiga olgan. Bu tarjima semantik tarjima usuli orqali amalga oshirilgan. Chunki:

“Disease” — “kasallik” deb tarjima qilingan. “Parkinson” qismi o’z shaklida transliteratsiya qilingan (antroponimik termin). Nega aynan semantik +

transliteratsiya? Antroponimlar tarjima qilinmaydi, faqat mos talaffuz bilan ko‘chiriladi. Kasallik nomida “disease” bo‘lgani uchun o‘zbek tilida "kasalligi" deb to‘liq tarjima qilish talab etiladi.

Xulosa

Kasallik nomlarini to‘g‘ri tarjima qilish tibbiyotning zamonaviy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon nafaqat lingvistik bilimni, balki chuqur tibbiy tushunchani ham talab qiladi. Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, tibbiy terminlarning aksariyati yunon va lotin tillaridan shakllangan bo‘lib, bugungi global tibbiyot tizimida ham shu an‘ana saqlanib qolgan. Ayniqsa, Ibn Sinoning tasnif va terminologiya yaratishdagi yondashuvi hozirgi zamonaviy ilmiy tushunchalar bilan uyg‘unlashgan holda tibbiy terminologiya rivojiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolada tahlil qilingan misollar shuni ko‘rsatadiki, har bir kasallik nomi o‘z tarixiga, etimologiyasiga va an‘anaviy qo‘llanilishiga ega. Pneumonia, asthma, leukemia kabi atamalar transliteratsiya orqali o‘zbek tiliga moslashtiriladi, chunki ularning shakli tibbiy amaliyotda xalqaro standart sifatida tan olingan. Tuberculosis — sil esa adaptatsiya usuli bilan tarjima qilingan bo‘lib, bu so‘z tarixan o‘zbek tilida shakllangan va klinik qo‘llanmada mustahkam o‘rnashgan. Parkinson kasalligi esa antroponimik kelib chiqishga ega bo‘lib, semantik + transliteratsiya usulida beriladi.

Bu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tibbiy tarjima jarayonida yagona universal usul mavjud emas. To‘g‘ri tarjima qilish uchun: terminning tarixiy kelib chiqishi; xalqaro miqyosda qo‘llanishi; o‘zbek tilining tibbiy normasi; klinik kontekst; xalqaro tasnif (ICD) standartlari birgalikda hisobga olinishi zarur.

Kasallik nomlarining noto‘g‘ri tarjima qilinishi tibbiy xatolarga, diagnostik chalkashliklarga, statistik noto‘g‘riliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli tibbiy tarjimon, shifokor va ilmiy tadqiqotchilar terminlarni tarjima qilishda ilmiy manbalarga, tarixiy-etimologik ma’lumotlarga va xalqaro tizimlarga tayanishi lozim.

Umuman olganda, ushbu maqola kasallik nomlarini tarjima qilishda ilmiy asoslangan yondashuvning zarurligini, terminologik moslik va standartlashtirishning tibbiyot amaliyotidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu esa nafaqat tarjimonlar,

balki shifokorlar, talaba va tadqiqotchilar uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.N. BOLIYEV “LOTIN TILI VA TIBBIYOT TERMINOLOGIYASI” Toshkent — «ILM ZIYO» — 2005. 290b.
2. Baxriyeva U. M. IBN SINO “TIB QONUNLARI” ASARIDA KASALLIK NOMLARI: LINGVISTIK VA TERMINOLOGIK TAHLIL. QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTIILMIY XABARLARI- Qo'qon. 2025. 2557b.
3. <https://dzen.ru/a/YAv3pUFzMybrlrLN?ysclid=miha4wqzv0839738618>
27.11.2025
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kalka> 27.11.2025